

## TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA AKSILOGIYA

**Azimov Ulug'bek Abduxalilovich**

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Farg'ona filiali, f.f.b.f.d (PhD)

[azimovulugbek413@gmail.com](mailto:azimovulugbek413@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada ta'lim-tarbiya jarayoni, yoshlarning ma'naviy, axloqiy fazilatlarini rivojlantirish borasida milliy, ma'naviy hamda axloqiy qadriyatlarning o'rni, G'arb va Sharq falsafasida qadriyatlar tizimi, voqelikka aksiologik munosabatga doir ilmiy-nazariy yondashuv va konsepsiyalar haqida ma'lumotlar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** ta'lim, tarbiya, milliy qadriyatlar, axloqiy qadriyatlar, demokratik qadriyatlar, aksiologik munosabat, qadriyatlar tizimi.

### AXIOLOGY IN THE EDUCATIONAL PROCESS

#### ABSTRACT

In this article, the educational process, the place of national, spiritual and moral values in the development of spiritual and moral qualities of young people, the value system in Western and Eastern philosophy, the scientific-theoretical approach to the axiological attitude to reality and concepts are given.

**Key words:** Key words: education, upbringing, national values, moral values, democratic values, axiological attitude, value system.

#### KIRISH

Yoshlarning demokratik islohotlarga aksiologik munosabatini yanada rivojlantirishni yuksaltirishga oid kontseptual g'oyalar O'zbekiston Respublikasi

Prezidenti Sh.Mirziyoyev [2] ta’biri bilan aytganda, “hozirgi zamonda intellektual va ma’naviy yetuk, tashabbuskor yoshlar barqaror taraqqiyotning drayveriga aylanmoqda. Bugungi kunda yangi O‘zbekiston yoshlari – mamlakatni modernizatsiya qilishga qaratilgan jadal va keng ko‘lamli islohotlarning harakatlantiruvchi kuchi va faol ishtirokchisi bo‘lib maydonga chiqmoqda” [3], shu nuqtai nazardan demokratik islohotlarda ularning o‘zaro munosabatlari ijobiy tarafga o‘zgarayotganligida namoyon bo‘lmoqda.

Sharq madaniyati tapixida muhim o‘rin tutgan buyuk mutafakkir alloma Forobiy ham qadriyatlar masalasini ilmiy nuqtai nazardan o‘rganib chiqqan. Uning qadriyatlar to‘g‘risidagi fikrlari “Madina al-Fozila” risolasida o‘z aksini topgan. Qadriyatlar masalasiga Beruniy asarlarida ham katta e’tibor qaratilgan. O‘rta asrlarda siyosiy qadriyatlarning rivojlanishida sohibqiron Amir Temurning xizmatlari alohida o‘rin egallaydi. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ham o‘z asarlarida qadriyatlar masalasiga inson manfaatlari nuqtai nazaridan yondashgan.

G‘arb falsafasida qadriyatlar tizimi va voqelikka aksiologik munosabatga doir ilmiy-nazariy yondashuv va kontseptsiyalar ishlab chiqilgan bo‘lib, nigilistik yondashuv tarafdorlari F.Bekon, P.Dekart, L.Feyerbax, G.Leybnitslar, bir tomondan, oliy qadriyatlarning qadsizlanganini e’tirof etsa, ikkinchi tomondan, “yangi qadriyatlar o‘rnatuvchi kuchlar” paydo bo‘lishini bashorat qilgan. Nemis aksiologiyasi tarixchisi A. Messer to‘rt yo‘nalishni farqlab, ularning yetakchi olimlarini ko‘rsatgan holda tasniflaydi. Ular fenomenologik (M. Sheller), idealistik (G. Rikkert), idealistik-realistik (G. Myunsterberg) va realistik (A. Shtern) yo‘nalishlardan iborat. M. Kissel esa aksiologik ong va qadriyatli munosabatning besh tipini farqlaydi: naturalistik psixologizm, transtsendentalizm, personalistik ontologizm, madaniy-tarixiy relyativizm va sotsiologizm. V.Verkmayster aksiologik ong va qadriyatli munosabatni tuzishga nisbatan bundan ham ko‘proq yondashuvlarni ajratadi: utilitaristik-iqtisodiy, emotsional-intuitivistik, metafizik, personalistik, psixologo-genetik, fenomenologik, instrumentalistik, estetik, gumanistik, relyativistik, empirik-bilishga doir, lingvistik.

[4;19-20] Ko‘rinib turibdiki, aksiologik ong va qadriyatli munosabat tiplari xususida olimlarning fikrlari xilma-xildir.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Qadriyatlar muammosining shakllanishi muayyan falsafiy yo‘nalish bilan bog‘liq bo‘lmadi, balki XIX asr o‘rtalarida inson hayot faoliyatining umumiy falsafiy tahlili kontekstida mustaqil madaniy-falsafiy fan sifatida vujudga keldi. Shu sababli ham qadriyatlar nazariyasining bir nechta tipi shakllanganlaridan biri neokantchilik yo‘nalishidir. Neokantchilik Baden (Freyburg) maktabi vakillari (V. Vindelband, G. Rikkert) va Marburg maktabi namoyandalari (P. Natarr, E. Kassiper va b.) siyomosida qadriyatlarni ideal borliq sifatida tavsiflagan. Transtsendental sub‘ekt mazkur idealning tashuvchisi hisoblangan. Personalistik ontologizm (M. Sheller) qadriyatlarning ob‘ektiv xususiyatini isbotlashga harakat qilgan.

Yoshlarda voqelikka aksiologik munosabatni rivojlantirish ilmiy muammo sifatida mamlakatimizda Q.N.Nazarov, T.U.Abdullayev, M.A.Karimova, A.J.Muratbayeva, O.M.Muhammadiyeva, M.A.Nurmatova, F.X.Yuldasheva, A.A.Qambarov kabi tadqiqotchi faylasuf olimlar tomonidan o‘rganilgan. [5] Ular qadriyatlarga pozitiv voqelik sifatida qarash va ulardan milliy-ma‘naviy merosni qayta tiklash, barkamol avlodni tarbiyalash vositasi sifatida foydalanish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi g‘oyasini ilgari surganlar.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichida jamiyat ma‘naviy hayotini sog‘lomlashtirish va rivojlantirish, inson omiliga katta e‘tibor berish asosiy vazifa sifatida qaralmoqda. Shu jihatdan globallashuv jarayonlari tobora kengayib va chuqurlashib borayotgan hozirgi davrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 19 sentabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida butun jahondagi 2 milliarddan ortiq yosh avlod vakillarining insoniyat taraqqiyotida muhim o‘ringa ega bo‘layotgani va yoshlar omilining alohida e‘tibor talab qilayotgani haqidagi fikri nafaqat BMT, balki dunyoning barcha mamlakatlari uchun tegishli va ahamiyatli bo‘ldi.

Taraqqiyotning yangi bosqichida xalqimiz o'z taqdirining egasi, tarixining ijodkori, o'ziga xos milliy madaniyatining chinakam sohibiga aylanmoqda. Bugun har bir millatda o'z-o'zini anglashga intilish kuchaydi. Mazkur maqolada yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, ayniqsa, ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish jarayonlari jamiyat muhiti, eng avvalo, yoshlarda demokratik islohotlarga aksiologik munosabatni rivojlantirish muammosining ilmiy asoslari tadqiq etilgan.

## XULOSA

Insoniyatning ulug' mutafakkirlari ijodiy hayotlarida birinchi galda donishmandlikka, ilm-ma'rifatga intilganlar, uni qadriyat sifatida e'zozlaganlar, ilm ahllarini yuksak darajada qadrlaganlar. Fuqarolik jamiyatida shaxs islohotlarning asosiy sub'ekti vazifasini bajarmoqda, uning erkinligi, so'z, matbuot, vijdon erkinligi to'la qaror topishi bilan ilmiy qadriyatlar umummilliy qadriyat sifatida e'tirof etila boshlaydi. Ijtimoiy qadriyatlar ma'naviy qadriyatlarning boshqa elementlariga nisbatan ustuvor yo'nalishga ega va ma'naviy qadriyatlar tizimida salmoqli o'rin egallaydi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. –Toshkent: O'zbekiston. 2021. – B 257.
2. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамыз. –Тошкент: Ўзбекистон, 2017
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг «Ёшлар 2020: Глобал миқёсдаги бирдамлик, барқарор тараққиёт ва инсон ҳуқуқлари» мавзусидаги инсон ҳуқуқлари бўйича Самарқанд форуми иштирокчиларига табриги. <http://xs.uz/uz/site/newspaper>.
4. Крюков В.В. Сумма аксиологии. - Новосибирск: НГТУ, 2018. - С.19-20.
5. Абдуллаев Т.У. Диалектика национальных и общечеловеческих ценностей в сфере быта. Дисс...д-ра философ. наук. – Тошкент: 1992
6. Рафиқова Д., Азимов У. MODERNIZATION OF EDUCATION AND INCREASING THE QUALITY OF EDUCATION //Экономика и социум. – 2021. – №. 2-2. – С. 167-169.
7. Азимов У. Факторы развития аксиологического подхода к демократическим реформам у молодежи в контексте гражданского общества на основе национальных ценностей //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 8/S. – С. 296-302.